

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH: GDPR VA MILLIY QONUNCHILIKNING QIYOSIY TAHLILI

Abbosov Shaxboz Ziyodbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi texnologiya asrida har qanday davlat hududining barcha sohalarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash tobora murakkablashib bormoqda. Shuningdek, Yevropa davlatlari hamda boshqa bir qancha rivojlanayotgan davlatlarda shaxslarning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilishning yangi tizimlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda va shu tartibda O'zbekiston hududida ham ushbu sohaga oid keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqola Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi huquqiy tartibga solish xususiyatlari ko'rib chiqadi va asosiy e'tiborni Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) hamda O'zbekiston milliy qonunchiligi o'rtasidagi qiyosiy tahlilga qaratadi. Tadqiqotda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning asosiy prinsiplari, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, nazorat qiluvchi organlarning vakolatlari hamda qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari chuqur tadqiqot va amaliy misollar yordamida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy ma'lumotlar, GDPR, ma'lumotlarni qayta ishlash, vakolatli organ, operator, uchinchi shaxs.

PERSONAL DATA PROTECTION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE GDPR AND NATIONAL LEGISLATION ON

Abbosov Shakhboz Ziyodbek ogli

Tashkent State University of Law

Faculty of Public Law

2st year student

Abstract: In the modern technological era, ensuring the protection and security of personal data in all spheres of any state's activities is becoming increasingly complex. European countries, as well as several other developing states, are developing and implementing new systems for protecting individuals' confidential information. Similarly, large-scale measures aimed at improving this sphere are being implemented in the Republic of Uzbekistan.

This article examines the features of legal regulation of personal data protection in the European Union and the Republic of Uzbekistan. The main focus is on a comparative analysis of the General Data Protection Regulation (GDPR) and the national legislation of Uzbekistan. The study analyzes the key principles of personal data processing, the rights of data subjects, the powers of supervisory authorities, and liability measures for violations of legislation. These issues are examined through in-depth research and practical examples.

Keywords: personal data, GDPR, data processing, authorized body, operator, third party.

ЗАЩИТА ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ GDPR И НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

*Аббосов Шахбоз Зиёдбекович
Ташкентский государственный
юридический университет
Факультет публичного права
Студент 2 курса*

Аннотация: В современную технологическую эпоху обеспечение защиты и безопасности персональных данных во всех сферах деятельности любого государства становится все более сложной задачей. В странах Европы, а также в ряде других развивающихся государств разрабатываются и внедряются новые системы защиты конфиденциальной информации граждан. Аналогичным образом и на территории Республики Узбекистан принимаются масштабные меры, направленные на развитие и совершенствование данной сферы.

В данной статье рассматриваются особенности правового регулирования защиты персональных данных в Европейском союзе и Республике Узбекистан. Основное внимание уделяется сравнительному анализу Общего регламента по защите данных (GDPR) и национального законодательства Узбекистана. В исследовании анализируются основные принципы обработки персональных данных, права субъектов данных, полномочия контролирующих органов, а также меры ответственности за нарушение законодательства. Указанные вопросы изучаются на основе глубокого анализа и практических примеров.

Ключевые слова: персональные данные, GDPR, обработка данных, уполномоченный орган, оператор, третье лицо.

I. Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borishi va ijtimoiy munosabatlarning raqamlashuvi sharoitida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish

masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Qayta ishlanayotgan axborot hajmining ortishi, elektron davlat xizmatlari, elektron tijorat va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi shaxslarning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilishning samarali huquqiy mexanizmlarini yaratish va ularni huquqiy jihatdan munosib tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi, moliyaviy krizislar va fuqarolar huquqlarining buzilishi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ayni vaqtda ko'plab rivojlanayotgan davlatlar xalqaro standartlardan andoza olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi o'zlarining milliy qonunchiligini ishlab chiqmoqda va takomillashtirmoqda. Ushbu sohadagi eng muhim normativ hujjatlardan biri Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) bo'lib, u shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga nisbatan qat'iy talablarni belgilaydi va ma'lumotlar subyektlariga keng ko'lamli huquqlar beradi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohada huquqiy bazani shakllantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda, uning asosiy bo'g'ini sifatida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va boshqa ushbu sohaga oid qonunlar va qonunosti aktlarini keltirishimiz mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi GDPR qoidolari va O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi milliy qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, ushbu sohadagi huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish istiqbollarini belgilashdan iborat. Mazkur maqolada shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning asosiy tamoyillari, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, vakolatli organlarning vakolatlari va ushbu qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari hamda ularning huquqiy oqibatlari ko'rib chiqiladi.

II Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini umumilmiy va maxsus yuridik bilish usullari tashkil etadi. Tadqiqot davomida Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) va O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchiligi qoidalarini qiyoslash imkonini beruvchi qiyosiy-huquqiy metod qo'llanilgan. Ushbu metod shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash tamoyillari, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, vakolatli organlarning vakolatlari, shuningdek, qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari tahlil qilishda foydalanilgan.

Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ularning mazmuni va huquqiy tabiatini aniqlash imkonini beruvchi formal-yuridik metoddan foydalanildi. Mazkur metod yordamida (YI) 2016/679 Reglamenti va O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni qoidolari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish institutini milliy va xalqaro huquq normalari, davlat organlarining faoliyati hamda shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini o'z ichiga olgan majmuaviy huquqiy mexanizm sifatida ko'rib chiqishga xizmat qiluvchi tizimli metod qo'llanildi [1]. Mantiqiy metodning qo'llanilishi ko'rib chiqilayotgan huquqiy tizimlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga hamda qiyosiy tahlil natijalari bo'yicha xulosalar shakllantirishga yordam berdi.

Bundan tashqari, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar va xalqaro tavsiyalarni tahlil va sintez qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va ushbu sohadagi xalqaro standartlar tashkil etdi .

III Natijalar

Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) va O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchiligi qoidalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida ushbu sohani huquqiy tartibga solish yondashuvlaridagi o'xshashlik va farqlar aniqlandi. Har ikkala huquqiy hujjat shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda jismoniy shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlashga, shuningdek, maxfiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanishning oldini olish mexanizmlarini yaratishga qaratilganligi belgilandi .

Bundan tashqari, tahlillar jarayonida GDPRda shaxsga doir ma'lumotlar operatorining hisobdorlik tamoyiliga katta e'tibor qaratilishi aniqlandi. Unga ko'ra, operator ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tashkiliy va texnik choralarni ko'rishi, shuningdek, qayta ishlash jarayonlarini hujjatlashtirishi shart. O'zbekiston milliy qonunchiligida ham shunga o'xshash talablar ko'zda tutilgan, biroq ular kamroq tafsilotlashtirilgan bo'lib, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishni taqozo etadi

Bundan tashqari, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va kuzatish tizimidagi farqlar aniqlandi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tekshirishlar o'tkazish va sanksiyalar qo'llash bo'yicha keng vakolatlarga ega bo'lgan mustaqil nazorat organlari faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasida nazorat funksiyalari vakolatli davlat organi zimmasiga yuklatilgan bo'lib, mustaqil nazorat mexanizmi rivojlanish bosqichida turibdi

Tadqiqot natijalari, shuningdek, qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralaridagi farqlarni ham ko'rsatdi. GDPRda 20 million yevrogacha yoki kompaniya yillik jahon aylanmasining 4 foizi miqdoridagi sezilarli jarima sanksiyalari ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ma'muriy javobgarlik choralari belgilangan, biroq ularning miqdori ancha past bo'lib, bu huquqiy tartibga solishning preventiv (oldini olish) samaradorligini pasaytirishi mumkin .

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining muhim xususiyati — fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlarini mamlakat hududida mahalliyashtirish (lokalizatsiya) talabi hisoblanadi, bu esa axborot himoyasini kuchaytirishga qaratilgan. GDPRda bunday talab mavjud emas, biroq unda belgilangan himoya kafolatlariga rioya qilingan holda ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish mexanizmlari ko'zda tutilgan.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, Yevropa Ittifoqida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimi huquqiy tartibga solishning yuqori darajasi va sanksiyalarning faol qo'llanilishi bilan ajralib turadi. GDPRni qo'llash bo'yicha hisobotlarga ko'ra, reglament kuchga kirganidan buyon 2 200 dan ortiq jarima qayd etilgan bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra ularning umumiy miqdori 5,6 mlrd yevrodan oshib ketdi. Bu YI mamlakatlarida huquqni qo'llash amaliyoti yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi [1].

Shunday qilib, o'tkazilgan qiyosiy tahlil O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchiligi xalqaro standartlarni hisobga olgan holda rivojlanayotganini ko'rsatdi. Biroq, huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish uchun subyektlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, operatorlar javobgarligini kuchaytirish va mustaqil nazorat institutini rivojlantirish zarur.

IV. Muhokama

Avvalo, shaxsga doir ma'lumot tushunchasiga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, shaxsga doir ma'lumot muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotdir[2] Boshqacha so'z bilan aytganda shaxsiy ma'lumot aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga («ma'lumotlar subyekti») tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotni anglatadi[3]

Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi Umumiy ma'lumotlar himoyasi to'g'risidagi reglament (GDPR) asosida shakllangan murakkab huquqiy normalar tizimi bilan tartibga solinadi. Ushbu normativ hujjat shaxsiy ma'lumotlarning qayta ishlanishi bo'yicha yagona talablarni belgilaydi, ular davlat organlari va xususiy tashkilotlarga ham taalluqli bo'ladi. GDPRning asosiy xususiyatlaridan biri — hisobdorlik tamoyili bo'lib, unga ko'ra shaxsiy ma'lumotlar operatori nafaqat qonunchilik talablariga rioya qilishi, balki tegishli hujjatlar va tashkiliy choralar orqali ularning bajarilishini tasdiqlashi ham shart.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham shaxsiy ma'lumotlarning himoyasiga qaratilgan asosiy qoidalar mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni shaxsiy ma'lumotlar tushunchasini belgilaydi, ularni qayta ishlash asoslarini o'rnatadi hamda shaxsiy ma'lumotlar sub'ektlarining huquqlarini tartibga soladi. Shu bilan birga, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy

qonunchilik umumiy normalarni o'z ichiga oladi va axborotni himoya qilish bo'yicha texnik va tashkiliy choralar masalalarini kamroq tartibga soladi. Raqamli transformatsiya huquqni qo'llash jarayonidagi keng faoliyat doirasini qamrab oladi, elektron hujjatlarni taqdim etishdan tortib qaror qabul qilishda sun'iy intellektdan foydalanishgacha. Ushbu jarayonning asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

108-sonli Konvensiyasi

Yevropa mamlakatlarida GDPR dan tashqari 108-sonli va uning modernizatsiya qilingan 108 + sonli Konvensiyasi ham mavjud hisobalanadi. 108+ Konvensiyasi shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning asosiy tamoyillarini, jumladan, ishlov berishning qonuniyligi, mutanosiblik, ma'lumotlarni minimallashtirish, ma'lumotlarning aniqligi va xavfsizlikni ta'minlash kabi mezonlarni belgilaydi. Hujjatda, shuningdek, davlatlarning nazorat mexanizmlarini yaratish va ma'lumotlar sub'ektlarining huquqlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari ko'zda tutilgan. 108+ Konvensiyasining muhim xususiyati uning universal xarakteridir, chunki unga Yevropa Kengashiga a'zo bo'lmagan davlatlar ham qo'shilishi mumkin, bu esa shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning global standartini shakllantirishga xizmat qiladi [4]

Milliy qonunchilikdagi hujjatlar

GDPR tartibga soladigan sohalar keng qamrovli bo'lib, O'zbekiston qonunchiligida faqat "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonunning o'zi bilan mazkur sohani tartibga solish qiyin hisoblanib, shu sababli qonunchilikda boshqa bir qancha qonun hujjatlari ham shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning alohida tartibini belgilab beradi. Xususan, axborotni himoya qilish masalalarini qo'shimcha tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonuni bilan amalga oshiriladi. Ushbu Qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat [5]. Ushbu qonunning natijasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda raqamli axborot makonini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biri sifatida shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda umumiy huquqiy standartlarni shakllantiradi. Qonun axborot egalarining huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilash orqali axborot resurslari, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qonunning shu jihatida raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashning xavfsizligini oshiradi, elektron xizmatlar va axborot tizimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. [6]

Davlat boshqaruvini raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" gi Qonuni alohida o'rin tutadi. Elektron hukumat faoliyati doirasida fuqarolarning shaxsiga doir katta hajmdagi ma'lumotlar, jumladan, shaxsiy ma'lumotlar, ijtimoiy maqom va davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlar qayta ishlanadi. Shu munosabat bilan, qonunchilikda axborotni himoya qilish, axborot

tizimlari xavfsizligini ta'minlash va shaxsga doir ma'lumotlarga kirishni cheklash bo'yicha talablar nazarda tutilgan [7].

GDPR umumiy tahlili

GDPRning asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, GDPRning asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, GDPR (General Data Protection Regulation) — bu Yevropa Ittifoqining 2018-yil 25-mayda kuchga kirgan va Yevropa Ittifoqi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashni tartibga soluvchi reglamentidir. U ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi dunyodagi eng qat'iy qonunlardan biri hisoblanadi.

GDPRning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ma'lumotlarga ishlov berishning qonuniyligi, adolatligi va shaffofligi
- Ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlarini cheklash
- Ma'lumotlarni minimallashtirish (keragidan ortiq ma'lumot to'plamaslik)
- Ma'lumotlarning aniqligi
- Saqlash muddatini cheklash
- Yaxlitlik va maxfiylik
- Ma'lumotlar nazoratchisining (kontrolliyorning) hisobdorligi

GDPR fuqarolarga keng ko'lamli huquqlarni taqdim etadi:

- Ma'lumotlarga kirish huquqi
- Ma'lumotlarni tuzatish huquqi
- Ma'lumotlarni o'chirish huquqi («unutilish huquqi»)
- Ma'lumotlarning ko'chirilishi huquqi
- Ma'lumotlarga ishlov berilishiga e'tiroz bildirish huquqi

Shuningdek, ushbu hujjatning eng asosiy xususiyati bu undagi sanksiyalar hisoblanadi. GDPR talablarini buzganlik uchun juda katta miqdorda jarimalar ko'zda tutilgan — 20 million yevrogacha yoki kompaniyaning yillik jahon aylanmasining 4 foizi miqdorida.

Bevosita ushbu hujjat va O'zbekiston qonunchiligi o'rtasidagi asosiy farqlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak ular quyidagilardan iborat:

- 1. Tartibga solishning qat'iylik darajasi.**
- 2. Eksterritoriallik (Hududdan tashqariga amal qilishi)**
- 3. Nazorat organlarining mustaqilligi**
- 4. Ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish (Mahalliyashtirish)**

Ushbu farqlarning har biriga to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

- 1. Tartibga solishning qat'iylik darajasi**

General Data Protection Regulation (GDPR) va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'rtasidagi asosiy farqlardan biri — tartibga solishning qat'iylik darajasi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish talablarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik darajasidir.

GDPRning 83-moddasiga muvofiq, reglament talablarini buzganlik uchun **20 million yevrogacha** yoki kompaniyaning o'tgan moliyaviy yildagi umumiy jahon aylanmasining **4 foizigacha** miqdorda ma'muriy jarimalar ko'zda tutilgan (qaysi summa yuqori bo'lishiga qarab). Ushbu norma, xususan, ma'lumotlarga ishlov berishning asosiy tamoyillarini, ma'lumot subyektlarining huquqlarini va ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish qoidalarini buzganlik uchun qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik, avvalambor “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” gi Qonun, shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari bilan belgilangan. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning **46²-moddasi** shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish va saqlash uchun jarimalarni nazarda tutadi. Biroq, sanksiyalar miqdori GDPR bilan solishtirganda sezilarli darajada past va asosan ma'muriy xarakterga ega. Masalan, ma'lum bir ijtimoiy tarmoqlardan biri (Facebook, Instagram) o'z foydalanuvchilarining shaxsga doir ma'lumotlarini sizib chiqishiga qarshi yetarlicha choralar ko'rmagan bo'lsa ular GDPR ga muvofiq savdo aylanmasining 20 mln yevrogacha yoxud savdo aylanmasining 4 % miqdorda jarimaga tortilishi mumkin. Lekin, ushbu holat O'zbekiston qonunchiligidagi sanksiyalar bilan tartibga solinadigan bo'lsa, jarima miqdorlari juda past hisoblanib katta aylanmaga ega bo'lgan kompaniyalar uchun hech qanday zarar keltirmaydi. Aynan shu sababli ham GDPR sanksiyasida savdo aylanmasining 4 % miqdorda jarima keltirilgan, chunki 20 mln yevro gacha bo'lgan jarima yuzlab milliard yevro foyda ko'ruvchi tashkilotlar uchun noqulaylik keltirib chiqarmaydi, lekin savdo aylanmasining 4 % foizi miqdori esa sezilarli darajadagi yo'qotish olib keladi.

2. Eksterritoriallik (Hududdan tashqariga amal qilishi)

GDPRning muhim farqi uning eksterritorial xarakteridir. Reglamentning 3-moddasiga ko'ra, u nafaqat Yevropa Ittifoqi hududida hududida joylashgan tashkilotlarga, balki YEI hududidan tashqaridagi kompaniyalarga ham tatbiq etiladi, agar ular:

- Yevropa Ittifoqi fuqarolariga tovarlar yoki xizmatlar taklif qilsa;
- Yevropa Ittifoqi hududidagi foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini monitoring qilsa.

Shunday qilib, GDPR Yevropa Ittifoqi fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlovchi dunyoning istalgan nuqtasidagi kompaniyalarga nisbatan amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonunida va boshqa hujjatlarda bunday eksterritorial norma mavjud emas. Qonun

asosan O'zbekiston Respublikasi hududida ma'lumotlarga ishlov beruvchi yoki mamlakat ichida joylashgan axborot tizimlaridan foydalanuvchi operatorlarga nisbatan qo'llaniladi.

Misol: Agar O'zbekistonning IT-kompaniyasi Germaniyadagi foydalanuvchilar ma'lumotlarini yig'sa, unga GDPR talablari tatbiq etiladi. Biroq, agar Yevropa kompaniyasi O'zbekiston fuqarolarining ma'lumotlariga ishlov bersa-yu, lekin O'zbekiston hududida faoliyat yuritmasa, milliy qonunchilik unga har doim ham to'g'ridan-to'g'ri qo'llanila olmaydi.

3. Nazorat organlarining mustaqilligi

DPRning 51-moddasiga binoan, har bir YeI davlati shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiluvchi **mustaqil nazorat organini** tashkil etishi shart. Ushbu organlar ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil harakat qiladi va quyidagi vakolatlarga ega:

- Tekshiruvlar o'tkazish;
- Axborot taqdim etilishini talab qilish;
- Ma'lumotlarga ishlov berishni cheklash;
- Jarimalar solish (GDPR, 58-modda).

O'zbekiston Respublikasida nazorat vakolatli davlat organi ya'ni faqat Davlat personallashtirish markazi tomonidan amalga oshiriladi. Qonun shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrini yuritish va ularga ishlov berishni nazorat qilishni ko'zda tutadi. Biroq, Yevropa modeliga o'xshash, to'liq mustaqil bo'lgan nazorat organi mexanizmi milliy qonunchilikda hali mustahkamlanmagan.

Misol: Yevropa Ittifoqida fuqaro shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha mustaqil organga (masalan, milliy DPA — Data Protection Authority) shikoyat qilishi mumkin va u kompaniyaga nisbatan tergov o'tkazadi. O'zbekistonda shikoyatlar ijro etuvchi hokimiyat tizimida faoliyat yurituvchi vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

4. Ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish (Mahalliyashtirish)

Yana bir muhim farq — ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish talabidir. O'zbekiston qonunchiligida bu talab «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonunda va qonunosti hujjatlarida qat'iy belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlari mamlakat hududida joylashgan texnik vositalardan foydalangan holda saqlanishi va qayta ishlanishi shart.

GDPRda ma'lumotlarni majburiy lokalizatsiya qilish talabi mavjud emas. Buning o'rniga, reglament shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish qoidalarini belgilaydi (GDPR, V bob). Ma'lumotlarni uzatishga quyidagi hollarda ruxsat beriladi:

- Himoya darajasi adekvat (yetarli) bo'lgan mamlakatlarga;

- Standart shartnomaviy shartlar mavjud bo'lganda;
- Ma'lumot sub'ektining roziligi bo'lganda.

Misol: O'zbekistondagi internet-servis fuqarolarning ma'lumotlarini O'zbekiston hududidagi serverlarda saqlashi shart. Yevropa kompaniyasi esa foydalanuvchi ma'lumotlarini boshqa davlatda saqlashi mumkin, bosharti yetarli himoya darajasi ta'minlangan va GDPR talablariga rioya qilingan bo'lsa.

Xulosa

Ushbu maqolada shaxsga doir ma'lumotlar sohasida Yevropa qonunchiligi xususan GDPR hamda O'zbekiston qonunchilik tizimidagi asosiy o'xshash va farqli jihatlar ochiq manbalar orqali ko'rib chiqilib, qiyosiy tahlil qilindi.

Har ikkala huquqiy tizim axborot maxfiyligini ta'minlash va shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, GDPR ma'lumotlar subyektlarining kengaytirilgan huquqlari ro'yxatini, operatorlarga nisbatan qat'iy talablarni va samarali nazorat tizimini o'z ichiga olgan yanada keng qamrovli va batafsil huquqiy tartibga solish mexanizmi hisoblanadi. Mazkur reglament shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning shaffofligini ta'minlash, risklarga asoslangan yondashuvni qo'llash hamda ma'lumotlar xavfsizligini texnik va tashkiliy choralar orqali mustahkamlashni nazarda tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi huquqiy tartibga solishning zamonaviy tendensiyalariga umuman olganda mos keladi. Xususan, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, xavfsizligi hamda subyekt roziligini olish kabi asosiy prinsiplar milliy qonunchilikda ham mustahkamlangan. Shuningdek, elektron hukumat tizimining rivojlanishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi hamda axborot tizimlarining integratsiyalashuvi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazaning bosqichma-bosqich takomillashtirilayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, milliy huquqiy bazani yanada takomillashtirish zaruriyati aniqlandi, jumladan:

- ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini kengaytirish;
- nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- mustaqil nazorat institutini rivojlantirish;
- qonunbuzarliklar uchun javobgarlik samaradorligini oshirish;
- shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda shaffoflik darajasini oshirish;
- transcagaraviy ma'lumotlar almashinuvini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;

- axborot xavfsizligi bo'yicha zamonaviy texnologik standartlarni joriy etish.

Xalqaro tajribani, xususan, GDPRning ayrim qoidalarini joriy etish O'zbekiston Respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish darajasini oshirishga, foydalanuvchilarning raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va axborot jamiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish hamda milliy amaliyotga moslashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolar o'rtasida axborot almashinuvining xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan yanada uyg'unlashtirish shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Kelgusida ushbu sohada huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish, amaliyotga samarali nazorat tizimini joriy etish hamda fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/ Литература/References

1. Voigt P., Von dem Bussche A. The EU General Data Protection Regulation (GDPR): A Practical Guide. Springer, 2017.
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-319-57959-7>
2. GDPR Enforcement Tracker Report 2025 <https://cms.law/en/prt/publication/gdpr-enforcement-tracker-report/numbers-and-figures>
3. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son <https://lex.uz/docs/4396419>
4. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council (GDPR). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
5. Convention 108+ — Council of Europe. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data. <https://www.coe.int/en/web/data-protection/convention108-and-protocol>
6. Axborotlashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son <https://lex.uz/docs/-83472>
7. Huquqiy axborot tizimlarida maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish <https://doi.org/10.5281/zenodo.17600886>
8. Elektron hukumat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-son <https://lex.uz/docs/-2833860>
9. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <https://lex.uz/ru/docs/-97664?ONDATE=18.01.2024>